

# **Taxiatosh tumanini rivojlantirishda Surxondaryo viloyati tajribasi qo'llaniladi**



Prezident topshirig'i bilan Respublika viloyatlari Qoraqalpog'istonidagi barcha tumanlarga biriktirilgan bo'lib, Surxondaryo viloyatiga Taxiatosh tumanini o'z tajribasi asosida rivojlantirishga ko'maklashish belgilangan.

Ishchi guruh a'zolari dastlab tumanning mavjud imkoniyatlarini o'rganish maqsadida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Shu asosda bu yerda mahalliy mutasaddi va mutaxassislar bilan birgalikda tumanni 2022-2024 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari rejasi ishlab chiqiladi.

[https://t.me/axborot\\_xizmati](https://t.me/axborot_xizmati)